

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv
fakulteti "Axborot texnologiyalari" kafedrasining 2025-yil 07-noyabrda
o'tkazilgan yig'ilishi № 4-sonli bayonnomasidan**

KO'CHIRMA

Qatnashdilar: Kafedra mudiri, dots. R.Y.Mamajanov, S.Sh.Mamarasulov, A.Xolbekov, Sh.Merganov, S.Jumayev, I.Xushbaqov, K.Xudayqulov B.Haqberdiyev, S.Noraliyev, I.Jumayev va boshqalar.

Kun tartibi:

1. Katta o'qituvchi F.Z.Mengturayevning 2 (ikki) soatlik ochiq ma'ruza dars muhokamasi to'g'risida.

EShITILDI: Yig'ilishni "Axborot texnologiyalari" kafedra mudiri R.Y.Mamajanov kirish so'zi bilan ochib, katta o'qituvchi F.Z.Mengturayevning o'tkazilgan 3-kurs 60610500 – Kompyuter injiniring" yo'nalishi 8-9-KI-2023-guruhda Signal va tasvirlarni qayta ishlash fanidan "Rang fazolari: RGB va HSV" mavzusida tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq dars ishlanmasiga ochiq ma'ruza mashg'ulot darsida qatnashgan barcha professor-o'qituvchilarga o'z minnatdorchiligini bildirdi. Yig'ilish qatnashchilari ochiq ma'ruza dars uchun tayinlangan taqrizchilar va ular tomonidan berilgan tashqi va ichki taqrizlar bilan tanishtirib o'tdi. Ochiq ma'ruza darsda fakultetning 6-nafar professor-o'qituvchilari ishtirok etganligini ta'kidlab ularga fikr-mulohazalarni bildirish uchun so'z berdi.


Kafedra katta o'qituvchisi S.Jumayev so'zga chiqib F.Z.Mengturayevning ochiq ma'ruza mashg'ulotiga o'zining quyidagi fikrlarini bildirdi: Darsning tashkiliy qismi o'qituvchi tomonidan yaxshi tashkil etilganligi va o'qituvchining dars jarayonida to'liq sensorli monitordan va notbook kompyuteridan foydalanib dars mashg'ulotini olib borganligini alohida ta'kidlab, tematik reja va dasturga muvofiq slayddan va turli metodlardan foydalangan holda dars mashg'uloti olib borilganligi, o'qituvchi tomonidan dars mavzusi "HEMIS" platformasida qayd etilib, talabalar davomati aniqlanganligini o'z so'zida bayon qilib, o'tilgan ochiq ma'ruza dars mashg'ulotini namunal deb baholadi.

O'qituvchi I.Xushbaqov ham so'zga chiqib F.Z.Mengturayevning ochiq ma'ruza darsiga o'zining quyidagi fikrlarini bildirdi: Darsning tashkiliy qismi o'qituvchi tomonidan yaxshi tashkil etilganligi va o'qituvchining dars jarayonida talabalarga Rang fazolari haqida to'liq ma'lumot berib ularni amaliy jilatlari ularning qo'llanish sohalari haqida keng tushuncha berib o'tilganligi talabalar ko'rsatib tushuntirganligini alohida bayon qilib o'tdi. Shu bilan birgalikda o'qituvchi tomonidan talabalarning dars jarayonidagi diqqati va e'tiborlarining nazorat qilib borilishini chetda qoldirmasligini eslatib o'tdi va dars jarayonini namunali deb topdi.

Yuqoridagi bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib kafedra yig'ilishi quyidagicha

QAROR QILADI:

1. Katta o'qituvchi F.Z.Mengturayevning o'tkazilgan 3-kurs 60610500 – "Kompyuter injiniring" yo'nalishi 8-9-KI-2023-guruhda Signal va tasvirlarni qayta ishlash fanidan "Rang fazolari: RGB va HSV" mavzusida o'tkazgan ochiq ma'ruza darsi rejaga asosan o'tkazildi deb hisoblansin.
2. Katta o'qituvchi F.Z.Mengturayevning o'tkazilgan 3-kurs 60610500 – "Kompyuter injiniring" yo'nalishi 8-9-KI-2023-guruhda Signal va tasvirlarni qayta ishlash fanidan "Rang fazolari: RGB va HSV" mavzusida o'tkazgan ochiq ma'ruza darsi namunali deb baholansin.

Yig'ilish raisi:  kafedra mudiri R.Y.Mamajanov

Yig'ilish kotibi:  katta o'qituvchi I.Xushboqov



TAKLIFNOMA

“Signal va tasvirlarni qayta ishlash” fanidan
“Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti”
“Kompyuter injiniringi” yoʻnalishi 3-bosqich
8-9-KI-2023 guruhlarida 07-noyabr kuni 1-simena
206- auditoriya soat 08:30 da
“Rang fazolari: RGB va HSV”
mavzusida maʼruza mashgʻuloti oʻtkaziladigan ochiq
darsga taklif etamiz.

Hurmat bilan!

Mengturayev Farxod Ziyatovich

“Axborot texnologiyalari” kafedrasi katta oʻqituvchisi

